

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING G'OYAVIY-MAFKURAVIY JIHATLARI

DUSBOYEV A.T.,

Chirchiq OTQMBY Gumanitar fanlar sikli boshlig'i, dotsent, podpolkovnik

TURGUNOVA D.A.,

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada axborotlashgan jamiyatda kiberxavfsizlik muammosining g'oyaviy-mafkuraviy asoslari tahlil qilingan. Kiberxavfsizlik nafaqat texnik va huquqiy, balki ma'naviy-mafkuraviy jihatdan ham ta'minlanishi kerakligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar. *axborotlashgan jamiyat, kiberxavfsizlik, mafkura, g'oya, metodologiya, axborot xavfsizligi, ma'naviy tahdidlar.*

АННОТАЦИЯ

В этой научной статье анализируются идеологико-мировоззренческие основы проблемы кибербезопасности в информатизированном обществе. Обосновано, что кибербезопасность должна обеспечиваться не только с технической и правовой точек зрения, но и с духовно-мировоззренческой стороны.

Ключевые слова. *информационное общество, кибербезопасность, идеология, идея, методология, информационная безопасность, духовные угрозы.*

ANNOTATION

This scientific article analyzes the ideological and conceptual foundations of the cybersecurity issue in an informatized society. It is justified that cybersecurity must be ensured not only from technical and legal perspectives but also from moral and ideological viewpoints.

Keywords. *information society, cybersecurity, ideology, idea, methodology, information security, spiritual threats.*

Bugungi kunda dunyo miqyosida axborotlashgan jamiyat shakllanib bormoqda, bu esa hayotimizning har bir jabhasida axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishini anglatadi. Internet, raqamli aloqa, elektron hukumat, ijtimoiy tarmoqlar – bularning barchasi zamonaviy inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Biroq, texnologik taraqqiyot bilan birga, kiberxavfsizlik masalasi ham

dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Kiberxavfsizlik nafaqat texnik choralar majmuasi, balki chuqur g'oyaviy va mafkuraviy asoslarga ega bo'lgan murakkab hodisadir.

Ma'lumki, axborot – jamiyat va davlat rivojlanishining muhim omili sanaladi. Shu bois, rivojlangan davlatlarda axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalari barcha sohalarga samarali joriy etilgani muvaffaqiyatlar garovi hisoblanadi. Buning asosini axborotlashuv, kommunikatsiya va IT texnologiyalari tashkil etadi. Xozirda insoniyat axborotlashgan jamiyat, ya'ni texnologiyalar asrida yashamoqda. Axborotlashgan jamiyat va unda axborot almashinuvining xususiyatlari masalasini muhokama qilish uchun dastavval “axborotlashgan jamiyat” tushunchasining mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetmoq zarur.

Axborotlashgan jamiyat termini manbalarda berilishicha Yaponiyada paydo bo'lgan. Mutaxassislar fikriga ko'ra ushbu termin yuqori sifatli axborot mo'l-ko'l bo'lgan va uni saqlash, taqsimlash va foydalanish uchun barcha vositalarga ega bo'lgan jamiyatni ifodalaydilar. Axborotlar manfaatdor kishilarga tez va oson hamda qulay shaklda yetkazib beriladi [2]. Axborot xizmatlari uchun narxlar shu darajada past bo'lishi kerakki, jamiyatning har bir a'zosi undan ehtiyojiga qarab foydalana bilsin. Akademik V.Izvozchikov axborotlashgan jamiyat xususiyatlarini ifoda etuvchi quyidagi ta'rifni taklif etganligini ko'rishimiz mumkin: “Axborotlashgan jamiyat – jamiyatning barcha sohalari hamda a'zolari hayoti va faoliyatida kompyuter, telematika va boshqa vositalar aqliy mehnat qurollari sifatida ishlatiluvchi, kutubxonalardan foydalanish, katta tezlik va aniqlikda axborotlarni qayta ishlash, real va prognozlashtirilgan hodisalarni modellashtirish, ishlab chiqarishni boshqarish, ta'limni avtomatlashtirish va boshqa vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan jamiyatga aytiladi.

Amerikalik sotsiolog Daniyel Bell tomonidan o'zining axborot texnologiyalari rivojlanishi tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida “Axborotlashgan jamiyat” tushunchasi chuqur tahlil qilingan. D.Bellning konsepsiyasiga ko'ra, **axborotlashgan jamiyat quyidagicha xususiyatlarga ega:**

axboriy-texnik – bu texnikaviy zahiralar bo'lib, uni jamiyat ishlab chiqaradi va foydalanadi;

ijtimoiy-axborot – bu jamiyat tomonidan axborot texnologiyalaridan foydalanish;

ijtimoiy-texnik – ijtimoiy-antropologik xususiyatlarni qamrab oladi [3].

Demak, axborotlashgan jamiyat – bu jamiyat turi bo'lib, unda axborot va bilimlar ishlab chiqarish, tarqatish, qayta ishlash va foydalanish iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotning asosiy omillaridan biriga aylangan.

Axborotlashgan jamiyatning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'lishini ta'kidlash mumkin:

axborotning bosh resurs sifatida namoyon bo'lishi – *axborot neft yoki oltin kabi qimmatbaho resursga aylanadi, ya'ni axborotni kim yaxshi egallasa – o'sha ustunlikka ega bo'ladi;*

axborot texnologiyalarining keng tarqalishi – *kompyuterlar, internet, smartfonlar va boshqa axborot kommunikatsiya vositalari deyarli barcha sohalarda qo'llaniladi;*

bilimga asoslangan iqtisodiyot – *ishlab chiqarish vositalari nafaqat moddiy, balki intellektual resurslardan aylanadi, ya'ni innovatsiyalar, yangi g'oyalar va ixtirolar muhimligi ortadi;*

jamiyat a'zolarining axborotni olish imkoniyati – *barcha insonlar turli axborot manbalaridan erkin foydalanishi va xoxlagan axborotni olish imkoniyatiga ega bo'ladi;*

kiberxavfsizlikning ahamiyati oshadi – *axborot oqimining o'sishi bilan kiberxujumlar, axborot taxdidlari va feyk ma'lumotlarga qarshi kurash dolzarb masalalardan biriga aylanadi.*

Shuni alohida qayd etish lozimki, jamiyat axborotlashishi ijtimoiy hayotga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bunga, avvalo, ommaviy axborot vositalari, uyali aloqa vositalari va internet tarmog'i rivojlanishi natijasida shakllangan yangi ijtimoiy muammolarni kiritish mumkin. Albatta bugungi zamonaviy dunyoda barchamizga axborot olamida yengil sharoitlar yaratilmoqda, keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Tanganing ikki tomoni bo'lgani kabi axborotlashgan jamiyatning ham ijobiy ham salbiy tomonlari mavjuddir.

Axborotlashgan jamiyatning ijobiy tomonlari – *tezkor aloqa va global muloqot imkoniyati kengayadi; ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda raqamli rivojlanish ortadi; masofadan ishlash va o'qish imkoniyatlari hamda yangi kasb va imkoniyatlar paydo bo'lishi [4].*

Axborotlashgan jamiyatning salbiy yoki xavfli tomonlari – *shaxsiy ma'lumotlarning yoyilishi (axborot xavfsizligi muammolari) xavfi ortadi; kiberjinoyatchilik o'sishi rivojlanadi; axborot orqali manipulyatsiya (mafkuraviy ta'sirlar) kuchayadi hada ma'naviy tahdidlar va axloqiy inqiroz makoni kengayib boradi [4].*

Axborotlashgan jamiyatda axborot – eng muhim resurslardan biri hisoblanadi. Bunday jamiyatda davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta'lim, tibbiyot, harbiy sohalar va boshqalar raqamlashtirilgan tizimlarga bog'liq bo'ladi. Shu bois, kiberxavfsizlik

masalasi nafaqat texnik, balki milliy xavfsizlik, mafkuraviy barqarorlik va shaxsiy daxlsizlik nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Manbalarda kiberxavfsizlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Kiberxavfsizlik – bu raqamli tizimlar, kompyuterlar, tarmoqlar va ma'lumotlarni kiberhujumlardan himoya qilish tizimi. Bu himoya: ma'lumotlarning maxfiyligini, yaxlitligini, mavjudligini va ta'minlashni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida “kiberxavfsizlik – kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati” deb ta'rif beriladi [1].

Bugungi kunda kiberjinoyatlar va kiberhujumlarning yangidan-yangi ko'rinishlari shakllanib bormoqda. Kiberjinoyatchilar girdobiga tushib qolayotgan insonlar, idora va tashkilotlar aziyat chekmoqda. Kichik hayotiy misol keltiradigan bo'lsak bir shaxsga tegishli bo'lgan plastik karta hisobidangi mablag'ni yechib olinishi ilgani bir muncha qiyinroq bo'lgan bo'lsa hozirda firibgarlar (xakerlar) osonlik bilan bu kabi jinoyatlarni amalga oshirishi ancha ortganini ko'rish mumkin. Shu bois har bir shaxs, idora va tashkilot o'z xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rishni davrning o'zi taqazo etmoqda.

Kiberxavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari:

texnik choralar – antivirus va firewall tizimlaridan foydalanish; axborot tizimlarini tez-tez yangilab borish; elektron ma'lumotlarni shifrlash va kodlash; avtomatik xavfni aniqlash va monitoring tizimlarini ishga tushurish;

huquqiy choralar – kiberjinoyatchilikka qarshi qonunlar doirasida qattiq chora ko'rish; axborot xavfsizligi sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirish; jismoniy va yuridik shaxslar mas'uliyatini belgilovchi meyorlar;

ma'naviy-mafkuraviy choralar – shaxslarni, aholini axborot iste'moli madaniyatiga o'rgatish; yoshlarning axborotdan to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish; mafkuraviy xavflarga qarshi immunitet yaratish;

tashkiliy choralar – davlat va xususiy sektorlarda axborot xavfsizligi bo'yicha maxsus bo'limlar mas'uliyatini oshirish; soha bo'yicha kadrlarni puxta tayyorlash va malakani oshirish; krizisli vaziyatlarga tayyorgarlik rejalarini ishlab chiqish.

Axborotlashgan jamiyatda yuzaga keladigan kibertahdidlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

fishing – soxta saytlar orqali shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash;

DDoS hujumlar – veb-saytlar faoliyatini to'xtatish;

malware (zararli dasturlar) – tizimni ishdan chiqarish yoki ma'lumot o'g'irlash;

ijtimoiy tarmoqlar orqali dezinformatsiya – feyk xabarlar tarqatish.

Kiberxavfsizlikni ta'minlashda har bir shaxs quyidagilarga amal qilishi lozim:

*quvvatli, ishonchli parollardan foydalanish;
noma'ruf (tayin bo'lsagan) manbalardan fayl yuklab olmaslik;
shaxsiy ma'lumotlarni ehtiyotkorlik bilan saqlash;
internetda axborotni tanqidiy tahlil qilaolish odatini shakllantirish.*

Kiberxavfsizlik nafaqat texnik muammo, balki g'oyaviy va mafkuraviy soha hamdir. Ayniqsa axborotlashgan jamiyat sharoitida, kibermaydondagi mafkuraviy tahdidlar davlatning milliy xavfsizligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, kiberxavfsizlikni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan o'rganish zarur. Kiberxavfsizlikning g'oyaviy-mafkuraviy jihatlarini chuqurroq o'rganadigan bo'lsak bu – axborot urushlari, feyk axborotlar, axborot bilan manipulyatsiya qilish, yoshlar ongiga ta'sir o'tkazish kabi tahdidlar kiberxavfsizlikning g'oyaviy-mafkuraviy tomonlarini yaqqol namoyon etadi. Ushbu tahdidlar – milliy mafkurani buzish, yoshlar ongida beqarorlik uyg'otish, jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytirish va madaniy qadriyatlarga putur yetkazish kabi maqsadlarni ko'zlaydi. Mazkur tahdidlarga qarshi kurashish uchun nafaqat texnik vositalar, balki mafkuraviy immunitet ham zarur.

Shu bois axborotlashgan amiyatda kiberxavfsizlikni ta'minlashning g'oyaviy-mafkuraviy jihatlarini o'rganishga alohida ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraviy tahdidlarni aniqlashda – kiberxavfsizlik sohasida feyk xabarlar, kiberpropaganda, dezinformatsiya tarqatilishini tahlil qilish lozim.

Jamiyatning axborot madaniyatini oshirishda – axborotdan oqilona foydalanish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish kerak.

Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda – fuqarolarning manipulyatsiyaga qarshi turish qobiliyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

Kiberxavfsizlikni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan o'rganishda quyidagi metodologik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

teoretik tahlil – *kiberxavfsizlik va mafkura konsepsiyalarini o'rganish; g'oyaviy va mafkuraviy tahdidlarni aniqlash va tasniflash; axborot va kommunikatsiya nazariyalari asosida tahlil qilish;*

amaliy tadqiqotlar – *kibermafura tahdidlarining amaldagi misollarini o'rganish (Keys-stadi orqali); internetdagi dezinformatsiya va propagandani monitoring qilish; jamoatchilik fikrini survetlar, intervyular orqali o'rganish;*

interdissiplinar yondashuv - *siyosatshunoslik, psixologiya, sotsiologiya va axborot texnologiyalari sohalaridagi bilimlarni birlashtirish; kiberxavfsizlikni keng qamrovli va tizimli o'rganish.*

Quyidagi usullar orqali qo'llash mumkin:

kontent-tahlil – internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalaridagi xabarlarini tahlil qilish;

situatsion tahlil – ma’lum bir holatlar, kiberxujumlar yoki tahdidlarni o‘rganish;

ekspert baholash – sohadosh mutaxassislarning fikrlari asosida tahlil;

so‘rovnomalar va intervyular – jamoatchilik va mutaxassislarning munosabatlarini aniqlash.

Ushbu usullar yordamida kiberxavfsizlikka oid mafkuraviy tahdidlarni aniqlash va bartaraf etish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, axborotlashgan jamiyatda kiberxavfsizlikni ta’minlash nafaqat texnik va huquqiy choralarni, balki g‘oyaviy-mafkuraviy yondashuvlarni ham talab etadi. Buning uchun mukammal metodologiya asosida tahlillar olib borish, soha mutaxassislari va keng jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy mafkuraning mag‘zini tashkil etuvchi g‘oyalarni yoshlar ongiga singdirish, axborot tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish bugungi kun talabi hisoblanadi. Har bir shaxs, idora yoki tashkilot o‘z xavfsizligini ta’minlashga mas’uliyatini oshirishi lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi RQ–764-son Qonuni “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”.
2. https://www.tami.uz/matnga_qarang.php?id=400. Boboho`jayeva N. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi. (Murojaat sanasi 6.06.2025 y. 20.20).
3. <https://einfolib.uz/post/ahborotlashgan-jamiyatda-ahborot-almashinuvi-ning-uziga-hos-hususiyatlari>. Shahnoza Rahimova. Axborotlashgan jamiyatda axborot almashinuvining o‘ziga xos xususiyatlari. (Murojaat sanasi 8.06.2025 y. 22.25).
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot_jamiyati. (Murojaat sanasi 8.06.2025 y. 21.10).